

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## KOKOS (*Cocos Nucifera*) O‘SIMLIGINING KOSMETOLOGIYADAGI AHAMIYATI

**Yaxshiboyeva Maftuna Xolmurat qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti ”Biologiya va uni o‘qitish kafedrası” o‘qituvchisi e-mail:  
[ymaftuna7777@gmail.com](mailto:ymaftuna7777@gmail.com)

**Abdusattorova Sevara Parda qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti Biologiya ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi  
[abdusattarovasevara114@gmail.com](mailto:abdusattarovasevara114@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu tezisda Kokos (*cocos nucifera*) o‘simligining botanik tavsifi, o‘sishi va rivojlanishi hamda bu o‘simlikning kosmetologiyadagi ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kokos, hindiston, kokos barglari, kambiy hujayra, apikal kurtaklar, kokos gullari, changlanish, mevasi, kokos yog‘i.

**Аннотация:** В диссертации представлены сведения о ботаническом описании, росте и развитии кокосового растения (*cocos nucifera*) и значении этого растения в косметологии.

**Ключевые слова:** Кокос, Индия, листья кокоса, клетка камбия, верхушечные почки, цветки кокоса, опыление, плоды, кокосовое масло.

**Annotation.** This thesis presents information about the botanical description, growth and development of the coconut plant (*cocos nucifera*) and the importance of this plant in cosmetology.

**Key words:** Coconut, India, coconut leaves, cambium cell, apical buds, coconut flowers, pollination, fruit, coconut oil.

Mamlakatimizda oziq-ovqat va dori-darmon xavsizligini yanada ta’minlash, bozorini sifat va xavfsiz dori-darmon to’ldirish maqsadida: Respublikada so‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarni eksport qilish, dorivor o‘simliklar yetishtiradigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohatlar amalga oshirilmoqda. Kokos (lot.*cocos nucifera*) - palma (*Arecaceae*) oilasiga mansub o‘simlik. Balandligi 27-30 m gacha, ingichka palma daraxti. Yon ildizlari yo‘q, lekin mustahkamlab turadigan ildizlari shakllangan bo‘lib, quyi qismida joylashgan. Kambiy hujayralari yo‘qligi tufayli ikkilamchi qalinlashishi kuzatilmaydi. Hindiston yong‘og‘i palmasining bitta apikal kurtagi bor va u nobud bo‘lsa, daraxt ham nobud bo‘ladi. Barglari pinnatsimon kesilgan, yirik, zich, uzunligi 6-m, gullari kichik va sariq rangga ega. To‘pgullari barg qo‘ltig‘ida joylashgan bo‘lib, 3-6 hafta oralig‘ida paydo bo‘ladi. Changlanish hashoratlar va shamol yordamida amalga oshiriladi. Hindiston yong‘og‘i palmasining ba’zi navlari naslning o‘zaro changlanishi va geterozigotaligi bilan ajralib turadi va uning navlari ko‘proq genetik bir xillik va o‘z-o‘zini changlatish xususiyatiga ega. Mevasi yirik, danakli kokos yong‘og‘i deb ataladi. Mevasining og‘irligi 1,5-2,5 kg.

**Kokos yog‘ining foydali jihatlari.** Kokos yog‘i (lot. coconut oil) bir qancha foydali xususiyatlari bilan inson organizmi uchun juda foydalidir.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Undan yuz teri va soch parvarishida keng qo'llaniladi, shuningdek, undan ba'zi bir teri kasalliklarida va oshqozon-ichak kasalliklarida ham keng qo'llaniladi. Bu ajoyib mahsulotning mevasini quritib sovuq siqish yo'li bilan ajratib olinadi, bunda yog' o'zining barcha foydali xususiyatlarini saqlab qoladi. Uning tarkibida vitaminlar, mikro elementlar, tabiiy antioksidantlar va zamburug'lar bilan kurashuvchi moddalar mavjud. Kokos yog'i barcha turdagi teri uchun mo'ljallangani xattoki, undan bolalar ham foydalanishi mumkin. U eng quruq terilarni ham yumshatadi va kerakli suyuqlikni saqlab qolishga yordam beradi. Qariyotgan teri ham kokos yog'ida mavjud bo'lgan vitaminlarga juda katta talab sezadi. Tarkibida kokos yog'i mavjud kremlardan foydalanib yuzdagi xusnbuzarlardan xalos bo'lish mumkin. Shuningdek, u tizza va tirsakdagi qavariq terini ham davolay oladi. Uning yordamida uy sharoitida piling tayyorlash mumkin. Kokos yog'i soch uchun ham foydali. Kokos yog'idan kerakli miqdorda shampunga qo'shsa soch mayin va go'zal ko'rinishga ega bo'ladi. Bundan tashqari kokos yog'i bitlashni bartaraf etadi va sochni oziqlantiruvchi vosita hisoblanadi. Zamburug'lar va bakteriyalarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Yurak faoliyatini yaxshilaydi, immun tizimini kuchaytiradi, terini namlantiradi. Tirnoqni parvarish qiladi. Kokos yog'idan kuniga 2 marta barmoqlarning uchiga massaj harakatlari bilan surtilganda, kutikulalarni yumshatadi va tez o'sishni oldini oladi va tirnoqlar ajoyib ko'rinishga ega bo'ladi. Shuningdek, kokos yog'i lablarni ham namlantirishda foydalaniladi ya'ni, uxlashdan avval lablarga kokos yog'i surtilsa lablar zarur ozuqani oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kokos palmasi uzoq Hindistonda o'sadi va mevasi qimmatboho hisoblanadi. Bu o'simlik madaniy hisoblanib ko'rinishi ajoyib manzarali o'simlik va mevasi ham ozuqa ham kosmetologiya vositasi hisoblanadi. Uning mevasidan olingan yog' esa hozirgi vaqtda ayollar orasida keng qo'llaniladi. Ayollar va yosh qizlarni yuzlarini sochlarini parvarishida ishlatilsa, yaxshi natijaga erishiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining “Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to'g'risida” gi qarori. Toshkent, 2020-yil. 10-aprel.
2. O'z ME. Birinchi jildi. Toshkent. 2000-yil.
3. Jukovskiy P.M. Madaniy o'simliklar ularning qarindoshlari 3-nashr. 1987-yil.
4. Sinyagin I.I. Tropik qishloq xo'jaligi. 1968-yil.
5. Menon K.R. va Pandalay K.M. “Hindiston yong'og'i palmasi” monografiya, Hindiston. 1958-yil.

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## CISTANCHE O‘SIMLIGINI SHIFOBAXSH XOSIYATLARI

**Abdraimova Q.Yu.**, assistent

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

tel: (97) 356-66-57, E-mail: [kundiz-abdraimova@mail.ru](mailto:kundiz-abdraimova@mail.ru)

**ANNOTATSIYA:** Cistanche – Cistanche o‘simligi cho‘lda o‘sadigan efemeroidlar ildizlarida parazitlik qiluvchi o‘simlik. Juda ko‘plab biologik faol moddalarni o‘zida saqlab, immunitet ko‘taruvchi, tonus beruvchi, estrogen va boshqa tasirlarga ega. Chet elda cystanxedan har hil dori shakllari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Mamlakatimizda bu dorivor nematni xom ashyosidan tasir doirasi keng, foydali tabiiy firopreparatlar ishlab chiqarilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**Kalit so‘zlar.** Cistanche, «cho‘l jensheni», tonus, immunitet, dori shakli.

**АННОТАЦИЯ:** Цистанхе - Cistanche растение-паразит на корнях эфемероидов, растущих в пустыне. Он содержит много биологически активных веществ, обладает иммуностимулирующим, тонизирующим, эстрогенным и другими действиями. За рубежом производится различные лекарственные формы из цистанхе. В нашей стране было бы целесообразно производить из сырья этого целебного растения полезные натуральные растительные препараты с широким спектром действия.

**Ключевые слова.** Цистанхе, «женьшень пустыни», тонус, иммунитет, лекарственная форма.

**ANNOTATION:** Cistanche - The Cistanche plant is a parasitic plant on the roots of ephemerals growing in the desert. It retains a lot of biologically active power and has uplifting, toning, estrogenic and other effects. The production of various medicines from cystanche has been started abroad. It would be appropriate for us to produce useful natural products with a wide range of effects from the raw materials of this medicinal blessing in the country.

**Keywords.** Cistanche, "desert ginseng", tone, immunity, medicinal form.

O‘zbekiston tabiiy va geografik jihatdan boy va xilma-xil xudud bo‘lib, unda tabiatning bebaho ne‘mati bo‘lmish dorivor o‘simliklar ko‘plab uchraydi. Hozirgi kunda O‘zbekiston florasida 138 oilaga tegishli 4500 tur o‘simlik o‘sadi va shulardan 1200 turi dorivor o‘simlik hisoblanadi. Shunday dorivor o‘simliklardan biri cystanche o‘simligi hisoblanadi.

Cistanche chala cho‘l va dashtlarda o‘sadigan bo‘yi 40 sm ga etadigan o‘simlik bo‘lib, anabazis, juzgun, saksovul, cherkez va boshqa buta, chala buta o‘simlik ildizlarida parazitlik qiluvchi shumgiyadoshlar (Orobanchaceae -Zarazixovie) oilasiga tegishli. O‘simlikni 27 turi bor bo‘lib, eng ko‘p tarqalganlari Cistanche salsa, Cistanche flava, Cistanche ambigua, Cistanche deserticola hisoblanadi.

Balandligi 0,4-1,6 m poyasi 2-10 sm diametrli, shoxlanmaydigan o‘t o‘simlik. Poyaning pastki qismidagi barglar tuxumsimon yoki uchburchak tuxumsimon; ustki qismi – nayzasimon yoki chiziqsimon. Gullari boshhoqsimon shaklga ega. Gultoiji quvursimon och sariq-oq yoki och binafsha rangga ega.

## **“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”**

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Mevasi tuxumsimon-sharsimon kapsula bo'lib, unda ellipssimon yoki tuxumsimon urug'lar bo'ladi. May va iyun oylarida gullaydi, iyun-avgust oylarida mevasi etiladi.

Tarqalish areali: O'rta Osiyo, Shimoliy Afrika va Pireney yarim orollaridagi cho'l va yarim cho'l regionlari hisoblanadi. Cystanxe dengiz sathidan 225 -1150 m balandlikda joylashib, O'rta Osiyoda 7 turi uchraydi.

Deyarli barcha turlari qimmatli kimyoviy tarkibga ega va davolash maqsadlarda qo'llaniladi. O'simlikni shifobaxsh hosiyatlari uchun jenshen bilan taqqoslashadi va hatto «cho'l jensheni» deb atashadi.

Davolash maqsadida cystanxening poyasi yani stollonlari gullash paytida yigiladi.

Tarkibida exinakozid, iridoidlar, polyfenollar, steroid birikmalarni va boshqa k o'plagan biofaol moddalarni saqlaydi.

Sharq mamlakatlari Xitoy, Yaponiya hatto AQSh tibbiyotida dorivor vosita va biofaol qo'shimchalar sifatida keng qo'llanilmoqda. Cystanxe prostata bezining kasalliklarida, immunitet ko'taruvchi, antioksidant, xotirani mustahkamlovchi, tonus beruvchi va yumshatuvchi tasirga ega. Cystanxeni quvvati jenshendani 5 marotaba kuchli hisoblanadi.

AQSh da iHerb nomli ishlab chiqaruvchi tomonidan «Standartlangan cystanxe» nomi bilan ishlab chiqariladigan kapsula shamollashga qarshi, arterial bosimni normallashtiruvchi, sog'lam T-hujayralarni rivojlanishini kuchaytiruvchi, immunitetni ko'taruvchi, estrogen, o'smalarga qarshi, uzoq umr ko'rishni rag'batlantiruvchi tasirga ega vosita sifatida ishlatiladi. Olimlarni hayvonlar ustida o'tkazgan eksperimentlari natijasida ularni hayot davomiyligi 15% oshgan. Bunnan tashqari cystanxe va exinakozid erkin radikallarni neytrallaydi, asab tizimini va uzoq yosh ko'rishni taminlaydi.

Qozog'istonda «Cystanxe» 100 grammnan fitochoy ko'rinishida, Rossiyada «Maydalangan cystanxe» 150 grammnan kukun ko'rinishida ishlab chiqarilmoqda.

Tabiatni bebaho inomi b o'lmish cystanxe o'simligi O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan, uni kimyoviy tarkibi to'liq aniqlanib, o'zimizda etishtirib, xom ashyosidan choy, tindirma va boshqa fitopreparatlarni tayyorlab xalqimizni sog'ligini saqlashda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tyrsunov J.I., Ibragimov A.A., Qurbonov B.I. Makro- i mikroelementniy sostav Cistanxe Mongolica G.Beck//Universum: ximiya i biologoya :elektronniy nauchniy jurnal 2020.№9(75)

2. Флора Узбекистана, Том-V, Издательство академии наук Узбекской ССР. Ташкент-1961, стр-505

3. Ходжиматов К.Х., Априсида Г.С., Ходжиматов А.К. Дикорастущие целебные растения Средней Азии.-Таш: Абу Али ибн Сино, 1995.-112 с.

4. Ходжиматов О.К. О запасах перспективного лекарственного растения Cistanhe salsa G/Beck.//Биоразнообразие в растительном мире Узбекистана: проблемы и достижения.-Материалы республиканской научно-практической конференции. Карши, 2018.-С 87-89.

5. Абдиниязова Г.Ж. Коракалпогистон Республикасининг доривор усимликлари. Монография.-Ташкент. Bayoz, 2017.-144 б.